BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

TURDIYEV DOSTON ERGASH O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN *OXYTROPIS* DC. TURKUMINING TAKSONOMIK VA GEOGRAFIK TAHLILI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 581.9:575.1:582.736.3:502.7

Falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (Phd)

Turdiyev Doston Ergash o‘g‘li
O‘zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumining taksonomik va geografik tahlili 3

Турдиев Достон Эргаш угли
Таксономический и географический анализ рода *Oxytropis* DC. распространен во флоре Узбекистана …..……..... 23

Turdiev Doston Ergash ugli
Taxonomic and geographical analysis of the genus *Oxytropis* DC. distributed in the flora of Uzbekistan ...……... 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….…… 49

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

TURDIYEV DOSTON ERGASH O‘G‘LI

O‘ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN *OXYTROPIS* DC. TURKUMINING TAKSONOMIK VA GEOGRAFIK TAHLILI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1246 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	_____
	_____
Yetakchi tashkilot:	_____

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « » soat dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871)262-37-95/ faks: (+99871)262-79-38, e-mail: botany@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (….raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Tel.:(+99871)262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ ” kuni tarqatildi.
(2025-yil « » dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

O.K. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
rais o‘rinbosari, b.f.d., professor

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Global biogeografiya nuqtai nazaridan O‘rta Osiyo Shimoliy yarimsharning mo‘tadil mintaqasidagi eng yirik qurg‘oqchil hudud bo‘lib, floristik xilma-xillikning asosiy markazlaridan biridir. Mintaqada 9643 ta yuksak o‘simlik turlari qayd etilgan bo‘lib, 3409 tasi endem, ularning qariyb to‘rtdan uch qismi tog‘li hududlarda uchraydi (Ma et al., 2024; Li and Tojibaev, 2024). O‘rta Osiyo tog‘ tizmalari biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha dunyodagi ustuvor ekoregionlar Global 200 ro‘yxatiga kiritilgan va bioxilma-xillikning 36 ta global “qaynoq nuqtalari” qatoriga kiradi (Myers, 2000; Marchese, 2014). Shu bilan birga, O‘rta Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekistonda, rasmiy tavsiflangan turlar soni bilan amalda mavjud bo‘lgan turlarning haqiqiy soni o‘rtasidagi nomutanosiblik ko‘lami hanuzgacha yetarli darajada anglab yetilmagan (The Linnean shortfall), shuningdek aksariyat turlarning zamonaviy geografik tarqalishini aks ettiruvchi geobog‘langan ma’lumotlarning hajmi cheklanganligicha qolmoqda (The Wallacean shortfall) (Ondo et al., 2024).

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining boy va xilma-xil florasi bilan ajralib turadi. Mamlakat hududida yuksak o‘simliklarning 4384 dan ortiq turi qayd etilgan (Sennikov et al., 2016). 2016-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti milliy florani tanqidiy inventarizatsiya qilishga qaratilgan “O‘zbekiston florasi” loyihasini ishga tushirdi. Hozirgi kunga qadar ushbu yangi “O‘zbekiston florasi” ning olti jildi chop etilgan bo‘lib, ularda 20 ta oila, 184 ta turkum va 820 ta tur bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan, hamda bu mamlakat florasining qariyb 18,9 % ini tashkil etadi. Amaryllidaceae, Apiaceae, Boraginaceae, Plantaginaceae, Ranunculaceae kabi yirik oilalar monografik jihatdan qayta ishlangan. Hozirgi vaqtda Amaranthaceae, Brassicaceae, Lamiaceae hamda Fabaceae kabi qator oilalar bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda, jumladan, Shimoliy yarimsharning eng yirik turkumlaridan biri bo‘lgan, 600 dan ortiq turni o‘z ichiga olgan *Oxytropis* DC. turkumi bo‘yicha ham izlanishlar davom ettirilmoqda.

Oxytropis turkumi Fabaceae oilasining taksonomik jihatdan eng murakkab turkumlaridan biri bo‘lib, Papilionoideae kenja oilasi, Galegeae qabilasiga mansub va *Astragalus* L. turkumi bilan yaqin qarindosh hisoblanadi (Yakovlev et al., 1996; Stevens, 2024). Ko‘plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay (Малышев, 2006, 2008; Sandanov et al., 2022; Kholina et al., 2021; Князев, 2023), ushbu turkumning filogeniyasi, taksonomiyasi va klassifikatsiyasi hali ham to‘liq ochib berilmagan. *Oxytropis* taxminan 5,6 million yil avval miotsen–pliotsen davrida Janubiy Sibir hududida shakllangan bo‘lib, orogenez jarayonlari va iqlim o‘zgarishlari ta’sirida tez diversifikatsiyaga uchragan (Положий, 2003; Shavvon et al., 2017). Hozirgi davrda turlarning eng yuqori xilma-xilligi Shimoliy va O‘rta Osiyo tog‘ tizmalarida kuzatiladi (Санданов и др., 2020).

Oxytropis turkumining O‘rta Osiyo florasi doirasidagi birinchi tanqidiy qayta ko‘rib chiqilishi bundan 40 yildan ortiq vaqt avval amalga oshirilgan bo‘lib, unda 166 tur keltirilgan (Филимонова, 1983). Keyingi taksonomik umumlashtirishlar natijasida turlar soni sezilarli darajada ortib, 194 taga yetgan. Ayniqsa ahamiyatli

jihati shundaki, ushbu turlarning 118 tasi mintaqaga xos endemlar hisoblanadi (Хасанов, 2015; Li and Tojibaev, 2024).

“O‘zbekiston florasi”ning birinchi nashrida (Гончаров, 1955) *Oxytropis* turkumining 34 turi qayd etilgan. Biroq bu ma’lumotlar ham tur tarkibi, ham taksonlarning geografik tarqalishi bo‘yicha sezilarli darajada eskirgan. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, O‘zbekiston florasida ushbu turkum turlari soni ikki baravardan ortiq oshgan bo‘lib, bu ularni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish zaruratini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu dissertatsiya “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”[1], PF–4947-sonli Harakatlar strategiyasi, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 915-son va 19-dekabrdagi 1034-son qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari o‘simlik dunyosi obyektlarini hisobga olish, biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini yuritish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rta Osiyoda *Oxytropis* turkumining o‘rganilishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Turkumga oid dastlabki ma’lumotlar A. Bunge (1874), E. Regel (1879) va A. Fedchenko (1886) ishlarida qayd etilgan. Ushbu davrda asosiy e’tibor turlarni morfologik tavsiflash va ularning umumiy tarqalish areallarini aniqlashga qaratilgan.

XX asrning boshlaridan boshlab V.V. Goncharov (1937, 1955) va N. Popova (1958, 1959) tadqiqotlarida *Oxytropis* turkumining sistematikasi va floristik tarkibi yanada batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, I.T. Vasilchenko (1948) tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar ham alohida ahamiyat kasb etib, turkumni o‘rganishda uzoq vaqt davomida asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston hududida esa *Oxytropis* turkumi uzoq vaqt davomida eng kam o‘rganilgan taksonomik guruhlardan biri hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakat florasi darajasida turkumning tanqidiy tahlili bundan 70 yildan ortiq vaqt avval amalga oshirilgan. Ushbu turkum bo‘yicha mavjud ma’lumotlar asosan O‘zbekistonning turli hududlari uchun tuzilgan floristik konspektlar yoki viloyatlarning kadastr ro‘yxatlarida keltirilgan tur tarkibi bilan cheklanib qolgan. Holbuki, O‘zbekiston hududida turkumning kompleks taksonomik tahlilini, biogeografik xususiyatlarini hamda zamonaviy geofazoviy ma’lumotlar bilan tahlil qilishni birlashtirgan, uning xilma-xilligi hamda tarqalishi haqida zamonaviy tasavvurlarni shakllantiradigan tadqiqotlar e’tibordan chetda qolgan. Shu bois *Oxytropis* turkumining O‘zbekiston florasidagi turlar xilma-xilligini aniqlashtirish,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

shuningdek mavjud taksonomik va geografik bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda biologik ma’lumotlar bazasini boyitish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan bo‘lib, jumladan “Janubi-g‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi okruglari florasini to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi)” davlat dasturi, hamda F5-FA-0-64792-sonli “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston florasida *Oxytropis* DC. turkumi turlarining zamonaviy konspektni tayyorlash, ularni taksonomik jihatdan qayta ko‘rib chiqish va kompleks geografik tahlilini amalga oshirish, shuningdek noyob taksonlarni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oxytropis turkumi turlarining taksonomik xususiyatlarini aniqlash maqsadida yangi dala materiallarini to‘plash va O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) da saqlanayotgan gerbariy namunalarini tanqidiy tahlil qilish;

turkum turlarni to‘g‘ri identifikatsiya qilish uchun asosiy diagnostik belgilarni har tomonlama o‘rganish va ularning diagnostik ahamiyatini baholash;

dala tadqiqoti davomida to’plangan materiallar, gerbariy kolleksiyalari va chop etilgan manbalar ma’lumotlarini umumlashtirgan holda, “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashri formati talablariga muvofiq *Oxytropis* turkumi turlarining zamonaviy konspektini tayyorlash;

turlar bo‘yicha taksonomik va kompleks geografik tahlilni amalga oshirish, shu jumladan tarqalishning to‘r tizimli xaritalarini ishlab chiqish, shuningdek turlar xilma-xilligi va endemizm markazlarini aniqlash;

tor arealli, endem hamda yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarning kamyoblik maqomini Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) mezonlariga muvofiq baholash, shuningdek ularni barqaror muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

yig‘ilgan ma’lumotlarni geobog‘lash hamda olingan natijalarni GMOCA va GBIF platformalariga integratsiya qilish orqali ulardan ochiq foydalanish va global botanik tadqiqotlarda qo‘llanish imkoniyatini ta’minlash.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* DC. turkumi turlari, TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari.

Tadqiqotning predmeti. Turlarning taksonomiyasi, morfologiyasi, geografiyasi, to‘r tizimli xaritalash, IUCN mezonlari bo‘yicha baholash va muhofaza qilishning ilmiy asoslari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda botanikaning klassik va zamonaviy usullaridan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-morfologik va tavsifiy yondashuvlar, ekologik-morfologik va ekologik-geografik tahlil, ma’lumotlarning statistik qayta ishlanishi hamda raqamli ma’lumotlar bazalarini yaratish usullari qo‘llanilgan. Shuningdek, turlarning hozirgi holatini IUCN toifalari va mezonlari

bo‘yicha baholash, ularning tarqalishini kartalashtirish va geobog‘langan ma’lumotlar bazalarini shakllantirishda zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston florasi” ning birinchi nashri chop etilganidan buyon ilk bor *Oxytropis* turkumining to‘liq taksonomik tarkibi qayta ishlab chiqilgan. Uchta ostturkum va o‘nta sektsiyaga mansub 63 turning tarkibi tanqidiy tahlil qilingan. Gerbariy kolleksiyalari va yangi dala materiallarini tanqidiy tahlil qilish asosida turkumning zamonaviy konspekti tayyorlangan hamda turlarni aniqlash uchun dixotomik kalit ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston florasida turkumning taksonomik xilma-xilligi oldingi nashr ma’lumotlaridan deyarli ikki baravar ko‘p ekanligidan dalolat beradi;

O‘zbekiston florasida *Oxytropis* turkumi turlarining endemizm darajasi kompleks baholangan. Mamlakat hududida aniqlangan 63 turning 51 tasi O‘rta Osiyoning tog‘li mintaqalariga xos endemlar hisoblanadi. G‘arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmalari mos ravishda 16 va 17 ta endemik tur bilan deyarli teng ekanligi aniqlangan. Shuningdek, mamlakat florasida yettita tur milliy endemik sifatida qayd etilgan. Olingan ma’lumotlar mintaqaning yuqori biogeografik ahamiyatini ko‘rsatib, tog‘ ekosistemalarining zamonaviy endemizm markazlarini shakllantirishdagi hal qiluvchi ro‘lini aks ettiradi;

geobog‘langan ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan va uning asosida turlarning umumiy tarqalishi, tur boyligi darajalari hamda yig‘malar zichligini aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritalar tayyorlangan. Olingan geoma’lumotlarning yetarli va ishonchliligi *Oxytropis* turlarining asosiy tog‘ tizmalari hamda balandlik mintaqalari bo‘yicha fazoviy taqsimotini tahlil qilish imkonini bergan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston florasida turkum xilma-xilligining bir qator “qaynoq nuqtalari” ni aniqlagan bo‘lib, ularning aksariyati Hisor va Chotqol tizmalari hududiga to‘g‘ri kelishi ma’lum bo‘ldi;

3500 dan ortiq gerbariy namunalarini o‘rganish, shuningdek TASH fondi materiallarini tanqidiy tahlil qilish hamda muallifning dala tadqiqotlari asosida O‘zbekiston florasida uchraydigan *Oxytropis* turkumining barcha 63 turining original morfologik tavsiflari tayyorlangan. Ilk bor morfologik tavsiflashda 257 ta belgi qo‘llanilgan, bundan tashqari ilgari ma’lum bo‘lgan 395 dan ortiq belgilar qayta o‘rganilib, aniqlashtirilgan. Olingan natijalar O‘zbekiston florasi doirasida *Oxytropis* turlarining to‘liq, batafsil va zamonaviy morfologik konsepsiyasini shakllantirish imkonini bergan. Amalga oshirilgan ishlar mavjud taksonomik tasavvurlarni kengaytiradi, turlarning chegaralari va hajmini aniqlashtiradi hamda keyingi filogenetik, biogeografik va tabiatni muhofaza qilish tadqiqotlari uchun asos yaratadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“O‘zbekiston florasi” ning yangi nashri uchun *Oxytropis* turkumining har tomonlama reviziyasi amalga oshirilgan, jumladan turlarni aniqlash uchun dixotomik kalit tayyorlangan, barcha taksonlarning yangilangan morfologik tavsiflarini, shuningdek GAT xaritalashdan foydalangan holda ularning geografik tarqalishi bo‘yicha yangilangan ma’lumotlari taqdim etilgan. Olingan materiallar

floristik ma’lumotlarning zamonaviy talablariga javob beradi, taksonomik talqinning yagona yondashuvda bo‘lishini ta’minlaydi va keyingi botanik tadqiqotlar, tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va *Oxytropis* turkumi turlarining taksonomik xilma-xilligini monitoring qilish uchun ilmiy asoslangan bazani shakllantiradi;

Oxytropis turkumi 57 turining 2 236 ta geobog‘langan gerbariy namunasi asosida ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. Ushbu geoma’lumotlar majmui O‘rta Osiyo o‘simliklariga oid mintaqaviy Grid Mapping of Central Asia Plants (www.gmoca.org) tizimiga integratsiya qilingan hamda Global Biodiversity Information Facility (GBIF; www.gbif.org) xalqaro platformasida joylashtirilgan;

Oxytropis turkumiga mansub 1 060 ta gerbariy namunasi noyob ilmiy obyekt maqomiga ega O‘zbekiston Milliy Gerbariyisi (TASH) fondiga topshirilgan;

IUCN Qizil ro‘yxati mezonlari va toifalariga muvofiq milliy Qizil kitobning yangi nashri uchun yettita noyob va endem turlar bo‘yicha tavsiflar tayyorlangan. Nurota tizmasi uchun endem tur hisoblanuvchi *O. pseudorosea* IUCN Qizil ro‘yxatiga kiritilgan, shuningdek noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

o‘tkazilgan tahlil *Oxytropis* turkumi va umuman Fabaceae oilasi turlarini o‘rganishga oid zamonaviy ilmiy paradigmalarga, shuningdek taksonomik va biogeografik tadqiqotlarning umumqabul qilingan metodikalariga mos keladi;

asosiy natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdim etilgan va muhokama qilingan, bu ularning ekspert baholanishini va xulosalarning aprobatsiyasini ta’minlagan;

tadqiqot materiallarining salmoqli qismi yetakchi ilmiy jurnallarda chop etilgan, bu esa ularning taqrizdan muvaffaqiyatli o‘tganini hamda professional ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilganini ko‘rsatadi;

geobog‘langan ma’lumotlar bazasi mintaqaviy (GMOCA, www.gmoca.org) va global (GBIF, www.gbif.org) biologik xilma-xillik platformalariga integratsiya qilingan bo‘lib, bu ularning qo‘shimcha ilmiy tasdiqdan o‘tishini, shuningdek, kelgusida foydalanish va mustaqil qayta tekshirish uchun ochiq va qulay bo‘lishini ta’minlaydi;

dala tadqiqotlari davomida to‘plangan keng qamrovli gerbariy materiallari O‘zbekiston Milliy gerbariysi fondiga (TASH) topshirilgan bo‘lib, ushbu fond O‘rta Osiyodagi yetakchi ilmiy markazdan biri sifatida materiallarning uzoq muddatli saqlanishi va ulardan foydalanish imkonini kafolatlaydi;

tadqiqot tasdiqlangan davlat (davlat byudjeti) ilmiy-tadqiqot mavzulari doirasida bajarilgan bo‘lib, bu mavzular ishning har bir bosqichida ichki va tashqi ekspertizadan o‘tishini nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, so‘nggi 70 yil ichida ilk bor O‘zbekiston florasida *Oxytropis* turkumi turlarining morfologik va taksonomik xususiyatlari zamonaviy konseptual va metodologik yondashuvlar asosida kompleks o‘rganilgan. Mamlakat hududida tarqalgan turkumga mansub barcha turlarning har tomonlama geografik tahlili amalga oshirilib, ularning biogeografiyasi va tarqalish qonuniyatlariga doir mavjud

ilmiy ma’lumotlar sezilarli darajada aniqlashtirilgan va kengaytirilgan. Dala tadqiqotlari ma’lumotlarini yetakchi gerbariy fondlari materiallarining tanqidiy qayta tahlili bilan uyg‘unlashtirish *Oxytropis* turkumining O‘zbekiston florasida ishonchli tasdiqlangan turlari sonini ikki baravar ortishiga olib kelgan. Bu esa kelgusidagi sistematik, floristik va tabiatni muhofaza qilishga oid tadqiqotlar uchun fundamental ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, *Oxytropis* turkumiga mansub taksonlar “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashri uchun taksonomik nuqtai nazardan tanqidiy qayta ko‘rib chiqilgan. Milliy Qizil kitobning yangi nashri uchun 7 ta kamyob va endem turlar bo‘yicha materiallar tayyorlangan, shuningdek 1 ta tur IUCN Red List ro‘yxatiga kiritish uchun tayyorlangan. Bundan tashqari, taksonlarni yanada aniq identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi hamda ta’lim jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan yangi raqamli illustratsiyalar yaratilgan. Bir asrdan ortiq vaqtni qamrab olgan geobog‘langan ma’lumotlar majmuasining tahlili asosida O‘zbekiston florasida *Oxytropis* turkumining zamonaviy turlar xilma-xilligi markazlari va endemizmning asosiy “qaynoq nuqtalari” aniqlab berilgan. Olingan natijalar kamyob turlarni saqlash bo‘yicha choralarni ishlab chiqish, muhofaza etiladigan hududlarni rejalashtirish va zaif o‘simlik jamoalarini monitoring qilish samaradorligini oshirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasida tarqalgan *Oxytropis* turlarini o‘rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston Milliy gerbariy fondiga (TASH) 45 turga mansub 1 060 dan ortiq gerbariy namunasi topshirilgan. Shuningdek, 57 turga oid 2 236 gerbariy namunasi asosida geobog‘langan ma’lumotlar bazasi shakllantirilib, “Raqamli tabiat” davlat ilmiy dasturi doirasida Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan ishlab chiqilgan Central Asia Plants Grid Mapping (GMOCA) mintaqaviy raqamli platformasiga joriy etilgan (O‘zR FAning 2025-yil 11-noyabrdagi 4/1255-2801-son ma’lumotnomasi) hamda Global Biodiversity Information Facility (GBIF) global ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilingan (2024-yil 25-noyabrdagi 019-son ma’lumotnomasi);

Tadqiqot natijalari asosida Nurota tizmasi hududida uchraydigan hamda O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan endem va kamyob *O. pseudorosea* turi IUCN Qizil ro‘yxatiga EN B1ab(i,ii,iii,iv,v) + 2ab(i,ii,iii,iv,v) maqomi bilan kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlada, hamda 1 ta xalqaro seminar-treningda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalardir. Jumladan, 4 ta maqola respublika, 3 ta maqola esa xalqaro hamda Scopus va WoS bazalarida indekslangan jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati o‘simliklar xilma-xilligini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar, xususan, “O‘zbekiston florasi” loyihasi doirasida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniq belgilangan, ishning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «O‘rta Osiyoda *Oxytropis* DC. turkumini o‘rganishning qisqacha tarixi» deb nomlanib, turkumning O‘rta Osiyo hududida o‘rganilishiga doir tarixiy-xronologik tahlilning asosiy natijalariga bag‘ishlangan. Bobda turkum sistematikasining asoslarini yaratgan A.A. Bunge (1868, 1874)ning ishlari, shuningdek, *Oxytropis* turlarining xilma-xilligi va geografik tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirilgan O.A. va B.A. Fedchenko (1906, 1909, 1913)larning klassik tadqiqotlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, turkumni sistemaga solishga sezilarli hissa qo‘shgan I.T. Vasilchenko (1948), N.F. Goncharova (1955) hamda boshqa bir qator tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilingan. *Oxytropis* turkumining zamonaviy taksonomik xilma-xilligi davlatlar kesimida tahlil qilinib, tip namunalari (*locus classicus*) bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «Tadqiqot obyekti va metodlari»ga bag‘ishlangan. Bobning birinchi bo‘limida tarixiy kolleksiyalarning eng yirik markazi hisoblangan O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH)da saqlanayotgan gerbariy namunalari asosida o‘tkazilgan tanqidiy tahlil keltirilgan. TASH fondida *Oxytropis* turkumining 135 turga oid jami 4 674 ta gerbariy namunasi saqlanadi, shundan 29 turga tegishli 54 ta tip materiallari hisoblanadi. 1841 yildan (turkumning fonddagi ilk gerbariy namunasi) 2025 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan gerbariy namunalarning xronologik tahlili asosida fond shakllanishining to‘rtta asosiy bosqichi ajratildi: **boshlang‘ich bosqich** (1841–1910) — dastlabki tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan kam sonli va tarqoq yig‘imlar bilan tavsiflanadi; **yuqori faollik bosqichi** (1910–1940) — fondning eng jadal to‘ldirilgan davri bo‘lib, mavjud namunalarning qariyb yarmi aynan shu yillarda yig‘ilgan; **tadqiqot faolligining pasayish bosqichi** (1941–2000) — yangi gerbariy namunalari kelib tushishining keskin kamayishi bilan xarakterlanadi; **zamonaviy bosqich** (2000–2025) esa yangi yig‘malarning muntazam ravishda amalga oshirilishi hamda tarixiy va zamonaviy materiallarning faol raqamlashtirilishi bilan tavsiflanadi.

Bobning ikkinchi bo‘limida dissertatsiyada qo‘llanilgan, taksonomik, morfologik va statistik tahlil usullari, bioiqlimiy modellashtirish yondashuvlari, shuningdek dala tadqiqotlari metodlari keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «O‘zbekiston florasida *Oxytropis* DC. turkumining taksonomiyasi» deb nomlanib, turkumining O‘zbekiston florasidagi taksonomik xilma-xilligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Belgilangan vazifalarni hal

etish maqsadida asosiy e’tibor gerbariy materiallarini va diagnostik ahamiyatga ega morfologik belgilarni tanqidiy o‘rganishga qaratildi. Olingan natijalar asosida aniqlagich kalit tuzildi hamda *Oxytropis* turkumining «O‘zbekiston florasi» si talablariga mos formatda konspekti tayyorlandi.


Bobning birinchi bo‘limida turlar uchun diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan morfologik belgilarning kompleks tahlili amalga oshirilgan. O‘zbekiston florasida *Oxytropis* turkumi uchta ostturkumga bo‘linadi: *Phacoxytropis* (15 tur), *Euoxytropis* (47 tur) va *Ptiloxytropis* (1 tur). Ular o‘rtasidagi farqlar ikki asosiy belgi bilan ajraladi: (i) mevaning kosachaga nisbatan morfometrik munosabati (meva kosachadan tashqariga chiqib turishi yoki kosacha ichida qolishi) va (ii) dukkakning qorin choklari bo‘ylab to‘siqning mavjudligi yoki mavjud emasligi. Ushbu belgilar taksonomik birliklarni aniqlashda kalitning asosi hisoblanadi.

Oxytropis turkumining morfologik belgilari tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi va mavjud tavsiflar tahlil qilindi. Turkum turlarini tavsiflashda qo‘shimcha 257 ta yangi morfologik belgi qo‘llanilib, turlar tavsifining ishonchliligi oshirildi. Olingan ma’lumotlar asosida klaster tahlili o‘tkazilib, ostturkumlar, seksiyalar va turlar o‘rtasidagi morfologik o‘xshashlik va farqlarni aks ettiruvchi morfologik dendrogrammalar tuzildi.

Oxytropis turkumi turlarining morfologik tavsiflari, shuningdek morfologik daraxtni tuzishda turkumning klassik tizimi (Васильченко, 1948) asosida hamda ushbu tadqiqot muallifi tomonidan ilk bor taklif etilgan va morfologik belgilar bilan boyitilgan yangilangan tizim bilan qiyosiy holda amalga oshirildi. O‘tkazilgan tahlil mavjud turkum tizimida ayrim bo‘shliqlar mavjudligini aniqladi (1A-rasm), bu esa diagnostik belgilar majmuasini aniqlashtirish va kengaytirishni talab etdi (1B-rasm). Natijada, bir qator morfologik belgilar — gultojining qurigan holatdagi rangi, qanotlarning ko‘zchalari shakli, dukkak qobig‘ining ichki tuklanganligi, urug‘larning shakli, pigmentatsiyasi va sirt relyefi ilk bor qo‘llanildi.

Morfologik belgilariga asoslangan klaster tahlili natijalariga ko‘ra, klassik tizimda *Eumorpha* seksiyasida bo‘lgan *O. aspera* va *O. megalorrhyncha* turlari diagnostik belgilar majmuasi bo‘yicha *Protoxytropis* seksiyasi vakillari bilan yanada yaqin o‘xshashlikni namoyon etishi aniqlangan. Shu munosabat bilan ushbu turlarni mazkur seksiyalar tarkibiga ko‘chirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, morfologik xususiyatlarning tahlili *O. leucocyanea* (*Ortholoma* seksiyasining *Pseudoortholoma* ostseksiyasiga kiritilgan), shuningdek *Sphaeranthella* seksiyasiga mansub *O. trajectorum* va *Protoxytropis* seksiyasiga mansub *O. savellanica* turlari belgilar majmuasi (gul tuzilishi, bargchalari, tuklanishi va boshqalar) bo‘yicha *Ortholoma* seksiyasining *Euortholoma* ostseksiyasi taksonlari bilan yaqqol korrelyatsiyaga ega ekanligini ko‘rsatdi.

To‘ldirilgan morfologik belgilar majmuasi asosida tuzilgan dendrogrammada *Euortholoma* va *Pseudoortholoma* ostseksiyalari bir-biridan aniq taksonomik va morfologik uzoqlashganligini yaqqol namoyon etdi. Ayniqsa, kosacha morfologiyasida (naycha va tishchalarning nisbati, tuklanishi), mevaning tuzilish xususiyatlarida (shakli, ichki tuklanishi, sirt relyefining) hamda barglarning morfologik belgilarida (bargchalar tuzilishi va soni) sezilarli farqlar aniqlangan.



1-rasm. *Oxytropis* turlarining klaster dendrogrammasi. (**A** – V.N. Vasilchenko (1948) ning klassik tizimiga asoslangan; **B** – klassik va muallif tomonidan taklif etilgan yangi diagnostik belgilarga asoslangan)

Bobning ikkinchi bo‘limi aniqlagich kalitga bag‘ishlangan. O‘zbekiston florasida *Oxytropis* turkumiga mansub turlar sonining sezilarli darajada ortishi mazkur kalitni ishlab chiqish zaruratini obyektiv ravishda taqozo etdi. Kalit A. Bunge (1874) tomonidan taklif etilgan klassik tizim, shuningdek N.F. Goncharova (1955) va I.T. Vasilchenko (1948) tomonidan kiritilgan keyingi qo‘shimcha va to‘ldirishlardan foydalanildi.

Ishlab chiqilgan aniqlagich kalit klassik taksonomik ishlarda qo‘llanilgan belgilarni, shuningdek muallif tomonidan *Oxytropis* turkumi turlarini identifikatsiya qilish uchun taklif etilgan qo‘shimcha morfologik belgilarni o‘zida integratsiya qiladi. Bunday yangi diagnostik parametrlar qatoriga gultojining qurigan holatdagi rangi (gerbariyda), qanotlardagi ko‘zchalar shakli, dukkak qobig‘ining ichki tuklanishi, urug‘larning shakli (yuraksimon, notekis to‘rtburchaksimon, keng tuxumsimon va boshqalar) kiradi. Barcha manbalarda urug‘ning buyraksimon shakli qayd etilgan. Urug‘ sirtining pigmentatsiyasi xususiyatlari va urug‘ yuzasining relyef turi ilgari diagnostik belgilar sifatida qo‘llanilmagan. Ushbu belgilar yuqori barqarorlik va sezilarli darajadagi differensiallash qobiliyatiga ega bo‘lib, kalitlarni tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan kalitning muhim jihati shundaki, *Oxytropis* turkumini o‘rganishda an’anaviy ravishda qo‘llanilgan gultojining rangi, barg uzunligi yoki dukkak o‘lchamlari kabi o‘zgaruvchan belgilar alohida emas, balki boshqa morfologik xususiyatlar majmuasi bilan birgalikda baholandi.

Bobning uchinchi bo‘limida *Oxytropis* turkumining konspekti keltirilgan. Unda har bir takson uchun qabul qilingan ilmiy nomlar, nomenklatura, birlamchi tavsif manbalari, asosiy sinonimlar, tip namunalarga oid ma’lumotlar, adabiyotlarga havolalar, shuningdek, turlarning O‘zbekiston botanik-geografik okruglari va rayonlari (Tojibaev et al., 2016) kesimida tarqalishi haqidagi ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, turlar uchun fenologik fazalar, o‘sish sharoitlari, yirik tog‘ tizmalari bo‘yicha tarqalishi hamda zarur ilmiy izohlar keltirilgan. Belgilangan vazifalar klassik taksonomiya tamoyillariga (Васильченко, 1948; Гончаров, 1955 и др.) hamda ushbu dissertatsiya ishi amalga oshirilayotgan «O‘zbekiston florasi» loyihasining konseptual qoidalariga (Sennikov et al., 2016) to‘liq mos keladi.

Oxytropis turkumi turlari tarqalishining GAT xaritalari tayyorlangan. Xaritalarni tayyorlashda TASH, MW, LE, AA, SamDU hamda O‘zbekistonning boshqa kichik gerbariy kolleksiyalarida saqlanayotgan mavjud gerbariy namunalari (3 500), shuningdek, muallif tomonidan yig‘ilgan 1 300 ta namuna ma’lumotlaridan foydalanildi. Muallif tomonidan tayyorlangan fotomateriallar va rangli illiyustratsiyalar dissertatsiya ilovasida keltirilgan bo‘lib, ular konspektning diagnostik ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

To‘rtinchi bobning birinchi qismida xorologik tahlil keltirilgan. O‘rta Osiyo florasi murakkab va uzoq davom etgan tarixiy-geografik jarayonlar natijasi bo‘lib, u genetik, iqlimiy va paleogeografik omillar majmuasi ta’sirida shakllangan (Камелин, 1973; Manafzadeh et al., 2017; Li et al., 2024). Floristik majmualarni geografik birliklar bo‘yicha tahlil qilish fundamental nazariy ahamiyat kasb etadi (Тахтаджян, 1986).

O‘zbekiston florasidagi *Oxytropis* turkumi turlarining xorologik tahlili L.S. Krasovskaya va I.G. Levichev (1987) tomonidan taklif etilgan, hamda

K.Sh. Tojibayev (2010) tomonidan kiritilgan keyingi qo‘shimchalar asosida amalga oshirildi. O‘tkazilgan tahlil tadqiqot obyektlarining umumiy geografik tarqalishini O‘rta Osiyoning tog‘li qismi va unga tutash hududlar doirasidagi asosiy yirik geografik birliklar bo‘yicha tavsiflash imkonini beradi (1-jadval).

Pomiroloy sinfiga mansub turlar orasida G‘arbiyhisor doirasida tarqalgan guruh alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu hududda yetti tur (*O. baissunensis*, *O. microcarpa*, *O. vvedenskyi* va bosh.) qayd etilgan. Agar ularga Ko‘hitang tizmasiga endem bo‘lgan yana ikki tur (*O. megalorrhyncha*, *O. pseudoleptophysa*) qo‘shilsa, aynan ushbu mintaqa G‘arbiy Pomir-Oloy hududida turkum turlari xilma-xilligini shakllantirishda muhimligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

1-jadval

O‘zbekiston florasidagi *Oxytropis* turkumi turlarining Areal sinflari bo‘yicha taqsimlanishi

Areal sinflari	**Turlar soni**	**%**
Pomiroloy	22	34,9
Tyanshan	20	31,7
Tog‘lio‘rtaosiyo	7	11,1
Keng arealli	11	17,4
Aniqlanmaganlar	3	4,7

O‘zbekistonning Tyanshan qismida turkum turlarining tarqalishiga xos bo‘lgan asosiy jihat G‘arbiy-tyanshan doirasida keng areallarga ega bo‘lgan taksonlarning ustunligi (*O. albovillosa*, *O. aulieatensis*, *O. sewerzowii* va bosh.), shuningdek asosan uning janubiy qismiga xos bo‘lgan janubig‘arbiy-tyanshan (Tojibaev, 2010) turlari (*O. trajectorum*, *O. ornata*, *O. tschimganica* va bosh.) bilan ifodalanadi. Mazkur guruh umumiy hisobda Tyanshan tipidagi tarqalishga ega bo‘lgan 20 turdan kamida 13 tasini tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu guruh tarkibida yanada lokal turlarning salmoqli ulushi ham qayd etildi. Xususan, Chotqol tipidagi arealga ega bo‘lgan turlar soni kamida oltita (*O. arassanica*, *O. fedtschenkoi*, *O. jucunda* va bosh.) ni tashkil etadi, bu esa mazkur tizmaning yuqori biogeografik ahamiyatini ka’rsatadi. Yana ham tor arealga ega bo‘lgan *O. caespitosula* Pskem tipidagi tarqalish bilan tavsiflanadi.

Tog‘lio‘rtaosiyo turlarining hududiy tarqalishi G‘arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari o‘rtasidagi floristik elementlarning migratsiyasini, ayrim hollarda esa ba’zi tizmalari, jumladan Oloy (*O. rosea*) va Nurota (*O. macrocarpa*) tizmalari o‘rtasidagi migratsiyalarni o‘z ichiga olgan uzoq davom etgan tarixiy-geografik jarayonlar natijasidir.

Bobning ikkinchi qismida O‘zbekiston botanik-geografik rayonlari (Tojibaev et al., 2016) bo‘yicha *Oxytropis* turlarining tarqalishini o‘rganish natijalari bayon etilgan. Aniqlanishicha, turkum vakillari 11 ta botanik-geografik okrug va 23 ta botanik-geografik rayon doirasida uchraydi, ularning tarqalishi yaqqol notekis xarakterga ega (Turdiev et al., 2025). Turlar xilma-xilligi asosan Tog‘lio‘rtaosiyo provinsiyasiga to‘g‘ri kelib, uning doirasida turkum turlari 8 ta okrug va 19 ta rayonda qayd etilgan. Ayniqsa, G‘arbiy Tyan-Shan okrugi umumiy turlar soni hamda gerbariy namunalari miqdori bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu

hududda *Oxytropis* turkumiga mansub 32 tur aniqlangan. Bu holat mintaqaning floristik boyligini, shuningdek uning nisbatan yuqori darajada o‘rganilganligini ko‘rsatadi (Тожибаев, 2010; Отчёт…, 2024; Turdiev et al., 2025).

G‘arbiy Tyan-Shan okrugi doirasida eng yuqori turlar xilma-xilligi Ugam-Pskem (23 tur, 4 endem), G‘arbiy Chotqol (18; 4) va Qurama (13; 2) rayonlarida qayd etilgan. Okrugning floristik boyligiga baland tog‘li Arashan va tog‘ oldi Chorkesar rayonlari ham muhim hissa qo‘shadi, bu hududlarning har birida 9 tadan tur aniqlangan.

G‘arbiy Hisor okrugida jami 22 ta tur aniqlangan bo‘lib, turlar xilma-xilligi eng ko‘pi Qashqadaryo (17 tur, 4 endem) va Boysun (13; 4) rayonlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qo‘shni Hisor-Darvoz okrugida 10 ta tur qayd etilgan bo‘lsa, Panj okrugida atigi uchta tur aniqlangan. Pomir-Oloy hududida *Oxytropis* turkumi turlarining taksonomik xilma-xilligini shakllantirishda Ko‘histon okrugi ham muhim ro‘l o‘ynaydi, bu hududda 19 tur (3 endem) aniqlangan, turlarning asosiy qismi esa Shimoliy Turkiston rayoni doirasida (15 tur) jamlangan. Shu bilan birga, Nurota okrugida qayd etilgan turlar sonining kamligi (4) o‘ziga xos botanik-geografik hodisa yoki floradagi “manfiy belgilar”ning namoyon bo‘lishi sifatida baholanishi mumkin (Камелин, 1990), chunki ekologik va iqlimiy jihatdan o‘xshash hududlarda turlar soni ancha ko‘p qayd etilgan.


Farg‘ona-Oloy (7 tur) va Farg‘ona (4 tur) okruglarida turlar xilma-xilligining nisbatan past bo‘lishi, ehtimol, ularning transchegaraviy joylashuvi bilan izohlanadi. Alohida qiziqish uyg‘otgan ikki tur *O. glabra* va *O. riparia* Turon provinsiyasining uchta okrugida keltirilgan (Turdiev et al., 2025). Buxoro okrugida tarqalgan mazkur turlar bo‘yicha so‘nggi tasdiqlangan topilmalar 1921-yilga to‘g‘ri keladi (Катта-Курган, опытное поле, *Попов*, 06.06.1921, 321).

Botanik-geografik rayonlar o‘rtasida tur tarkibining o‘xshashlik darajasini baholash uchun klaster tahlili usuli qo‘llanildi (Somerfield, 2008). Olingan daraxt aniq ravishda ikki yirik klasterga ajraladi va O‘zbekiston hududida *Oxytropis* turlarining tarqalishidagi asosiy biogeografik qonuniyatlarni aks ettiradi (2-rasm). Shunga o‘xshash hududiy tarqalish modellari ilgari boshqa taksonomik guruhlar, jumladan *Tulipa* L. (Dekhkonov, 2023), *Iris* L. (Sennikov et al., 2023), *Hedysarum* L. (Juramurodov et al., 2024) va boshqalar uchun ham qayd etilgan bo‘lib, bu holat mintaqa florasining biogeografik differensiasiyasining barqarorligini tasdiqlaydi.

